

CHO'LPON DRAMALARI VA ULARNING YARATILISHI

Tashpulatov Muxriddin Raxmatulla o'g'li

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14556259>

Annotatsiya. Mazkur tezisda Cho'lponning qisqacha hayoti va ijodi, dramalari hamda ularning yaratilishi haqida so'z boradi. Tezis davomida Cho'lponning adabiyotimiz ravnaqiga qo'shgan hissasi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: dramalar, nazariy qarashlar, "Yorqinoy" dramasi, dramashunoslik.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon XX asr she'riyatining yirik vakili, o'zbek nasri, dramaturgiyasi, tanqidchiligiga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir.

"Cho'lpon", "Qalandar", "Mirzaqalandar", "Andijonlik" kabi taxalluslar bilan ijod qilgan.

Abdulhamid Sulaymon 1897-yilda Andijonda Qatortarak mahallasida tug'ilgan. Uning onasi uy bekasi bo'lgan, otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o'g'li dehqonchilik, hunarmandchilik, bazzozlik bilan shug'ullangan. Cho'lponning otasi zamonasining peshqadam ziyolilaridan bo'lgan, "Rasvo" taxallusi bilan g'azallar yozgan.

Abdulhamid avval eski maktabda o'qiydi, yaxshilab xat-savodini chiqargach, Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil ko'radi, arab, fors, turk tillarini mukammal egallaydi. U Yoshligidayoq sharq adabiyotini shu qadar sevib qoladiki, butun umri davomida Firdavsiy, Hofiz, Sa'diy, Umar Hayyom, Rumi, Navoiy, Tavfiq Fikrat, Nomiq Kamol, Abdulla To'qay kabi buyuk so'z san'atkorlarining asarlarini yod olishdan to'xtamaydi, ular haqida hayajonli maqolalar yozadi. Zamona zaylini chuqur his etgan Cho'lpon Andijonda Yangi ochilgan rus-tuzem maktabiga ham kirib o'qiydi, u yerda bir qancha dunyoviy ilmlarni, ayniqsa, rus tilini mukammal o'rganadi. Shunday qilib, Cho'lpon 16-17 yoshlaridayoq ham sharqona, ham yevropacha puxta ma'lumot olgan, ilg'or fikrli ziyoli bo'lib yetishadi.

U 1913-14 yillardan ijod qila boshlaydi. Uning dastlabki asarlari "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" kabi mahalliy gazetalarda, shuningdek, Orenburgda chiqqan "Sho'ro" jurnalida bosiladi. Cho'lponning dastlabki asarlariga "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar", "Adabiyot nadur?" kabi maqolalari, "O'sh" ocherki, "Qurboni jaholat" feletoni, "Doktor Muhammadiyor" hikoyalarini kirgizish mumkin.

"Adabiyot nadur?" degan maqolasida Cho'lpon adabiyot bahonasida Turkistonning istiqboli haqida qayg'uradi, xalqning kelajagini ta'minlaydigan omillar To'g'risida mulohaza yuritadi.

U yozadi: “Hech to‘xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qaro kirlar ila xiralangan ruhimiz uchun shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa millat yashar...” Bu mulohazalar bugun ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.

“Doktor Muhammadiyor” hikoyasi XX asr boshlaridagi o‘zbek ma’rifatchilik adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. U badiiy jihatdan zaifroq, tasvir o‘rniga bayonchilik ustun, qahramonlar jonli xarakter kasb etmagan. Ammo shunga qaramay, adibning Turkiston taqdiri haqida kuyib-yonib o‘ylashi, xalqni jaholat botqog‘idan, nodonlik iskanjasidan qutqaruvchi samarali omillarni izlashi aniq sezilib turadi. Keyinchalik Cho‘lpon O‘sh haqidagi safarnomasini yozadi. SHundan keyin sekin-sekin she’riyatga qo‘l ura boshlaydi. Uning birinchi she’ri “Turkistonlik qarindoshlarimizga” (1914 yil, “Sadoi Turkiston” gazetasida), “Turkiston salomi” (“Hurriyat” gazetasida) chiqqan.

Cho‘lponning 1913-17 yillardagi ijodini birinchi bosqich deb olsak, shoir bu bosqichda chinakam muvaffaqiyatga erisha oldi deyish qiyin. 1917 yillarda Cho‘lpon ijodining etuklik bosqichi boshlangan. Bu davrga kelib Cho‘lpon san’at, adabiyotning rolini aniqroq tushuna boshlaydi. Bu uning “Sho‘ro hukumati va “Sano e nafisa” maqolasida aks etgan. “O‘zbek Yosh shoirlari” to‘plamida (1922) uning 13 ta she’ri bosilib chiqadi. Bunga eng go‘zal she’rlar kirgan edi. Uning she’rlarida sekin-sekin millatparvarlik ruhi sezila boshlaydi. Cho‘lpon xuddi shu yillarda, ya’ni 25-30 Yoshlari o‘rtasida juda barakali ijod qildi. U “Uyg‘onish” (1922 y.), “Buloqlar” (1924 y.), “Tong sirlari” (1926) degan uchta to‘plam e’lon qildi. Ulardan tashqari “Go‘zal yozqichlar” va “Adabiy parchalar” degan kitoblarda uning anchagina she’rlari bosildi. 1926 yilda “Yorqinoy” dramasi alohida kitob tarzida chop etildi.

Cho‘lpon shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, publisist bo‘lish bilan birga barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o‘ziga xos qarashlarga ega san’atshunos ham edi.

Cho‘lpon adabiyotning inson ruhiyati bilan bog‘liq hodisa deb qaraydi: “Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lg‘an, so‘lg‘an, o‘chg‘an, majruh yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singigan qora balchiqlarni tozalaydurg‘on, o‘tkir Yurak kirlarini Yuvalaydurg‘on, toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarni yorug‘ va ravshan qiladurg‘on, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydurg‘on buloq suvi bo‘lganlikdan bizg‘a g‘oyat kerakdur”.

Cho‘lpon o‘z davrida teatr tanqidchisi sifatida maydonga chiqdi. U Fitratning “Chin sevish” va “Abo Muslim” dramalariga taqriz yozdi. Bularda ikki muammo: 1) asarning badiiy – estetik qimmati; 2) sahna ijodiyotining ahvoliga munosabat ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Chunonchi, tanqidchi “Chin sevish” haqida yozar ekan, muallif ijodini baholashda faxru fazl usulidan foydalanib, quyidagi fikrlarni bildiradi: “Yaqinda o‘zbek sahnasi ulug‘ va ulug‘ ligi qadar Yuksak va go‘zal bir tomosha ko‘rdi... tanqid va taqriz qilishni ien bajara olmayman. Biroq bu to‘g‘ rida yozmoqlik menga tushganligidan ko‘p chuqur bo‘lmagan qarashni yozib ketaman”.

Cho‘lpon o‘n yetti yoshidanoq jadid nashrlari bilan aloqa bog‘laydi, ularda avvaliga kichkina xabarlar, so‘ng nazmiy va nasriy mashqlari, publitsistik maqolalari bilan qatnasha boshlaydi. E’tiborlisi, u nafaqat Turkiston, balki Qrim, Tatariston, Boshqirdistonda chop etilgan gazeta-jurnallarda ham ijod namunalari bilan qatnashishga harakat qilgan. Cho‘lponning matbuotda chop etilgan ilk asari “Sadoyi Turkiston”ning 1914-yil 3-sonidan joy olgan “Turkistonli qardoshlarimizga” she’ridir. Shundan so‘ng “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarida birin-ketin “Qurboni jaholat”, “Doktor Muhammadiyor” nomli hikoyalari, “Bahor avvallari” etyudi, “Adabiyot nadir?” va “Muhtaram yozg‘uchilarimizga” nomli adabiy-tanqidiy, “Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik” hamda “Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar” nomli publitsistik maqolalari e‘lon qilindi. Albatta, mazkur asarlar mukammallikdan ancha yiroq, biroq adibning ijodkor va shaxs sifatidagi o‘rishini kuzatish uchun g‘oyat muhim. 1914–1915-yillardagi “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalar bilan hamkorlik Cho‘lpon uchun qo‘shimcha mashg‘ulot edi, asosiysi esa savdo ishi bo‘lgan. Ushbu nashrlar to‘xtagach, 1915–1917-yillarda Andijonda chop etilgan “Turkestanskiy golos” gazetasi tahririyatida ishlagani professional jurnalistik faoliyati boshlanganidan darak beradi. 1920-yillarda Cho‘lpon shoir sifatida shuhrat qozondi, yangi o‘zbek she’riyatining chinakam lideriga aylandi va e’tirof etildi.

Davr matbuotida e‘lon qilingan va “O‘zbek yosh shoirlari” jamoa to‘plamiga kirgan she’rlari, “Uyg‘onish” (1922), “Buloqlar” (1922), “Tong sirlari” (1926) to‘plamlari o‘quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Shu yillarda markaziy matbuotda Cho‘lpon she’riyati haqida iliq fikrlar aytili: Z.Bashir, A.Sa’diy, V.Mahmud kabi munaqqidlarning maqola va taqrizlari e‘lon qilindi.

Cho‘lpon dramaturg sifatida ham salmoqli ijod qilgan. Uning “Xalil farang”, “Cho‘rining isyoni” kabi kichik pyesalari, “O‘rtoq Qarshiboyev”, “Mushtumzo‘r” kabi dramalari hamda ko‘p vaqt sahnadan tushmagan “Yorqinoy” pyesalari mashhur bo‘lgan. Shuningdek, rus yozuvchisi V.Yan bilan hamkorlikda “Hujum” dramasini yaratgan. “O‘zbek yosh shoirlari” (1923), “Go‘zal yozg‘ichlar” (1925), “Adabiyot parchalari” (1926) majmualarida chop etilgan she’rlari, “Do‘xtur Muhammadyor” (1914), “Oydin kechalarda” hikoyalari yangi davr o‘zbek nasri rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Cho‘lpon adabiyot olamida o‘zining dastlabki qadamlarini tashlar ekan, Andijon tuprog‘ida, hatto atrof shahar va qishloqlarda ro‘y berayotgan voqealarga munosabat

bildirishga, jamiyat hayotida ko‘ringan yangi tamoyillarni targ‘ib qilish, nuqson va illatlarni esa Behbudiy ko‘zgusi orqali el-yurtga namoyish etishga urindi.

O‘zbek teatrining dastlabki tekshiruvchilaridan biri B.Pestovskiyning bevosita Cho‘lpondan olgan ma‘lumotlari asosida **“Искусство и жизнь”** jurnalining 1922-yil 1-sonida e‘lon qilingan maqolasida aytilishicha, uning “Yorqinoy” dramasi 1920-yil 24-noyabrda Toshkentdagi “Xalq uyi”da namoyish etilgan. Cho‘lponning sahna yuzini ko‘rgan ilk asaridan keyin, 1921-yil yanvarida, “Turon” teatrida uning “Xalil farang” pyesasi sahna yuzini ko‘rdi.

Uning shu yillarda yozgan “Cho‘lpon sevgisi” she‘riy dramasi 1922-yilga qadar sahnaga qo‘yilmadi. (Undan keyin qo‘yilgan-qo‘yilmagani to‘g‘risida ham biror ma‘lumot yo‘q).

B.Pestovskiyning “O‘zbek teatri” maqolasi nashr etilgan vaqtda (1922) Cho‘lpon “Cho‘rining qo‘zg‘olishi” (bu asar “Cho‘rining isyoni” deb ham yuritiladi) va “O‘ldirguchi” pyesalari ustida ishlagan. Muallif zikr etilgan asarlarning faqat ikkitasi “Yorqinoy” va “Cho‘rining qo‘zg‘olishi” pyesalarining mazmuni haqida qisqagina tasavvur bergan. Ko‘ramizki, Cho‘lpon dramaturg sifatida mehnatkash xalqning og‘ir va mashaqqatli qismatini ko‘rib, unga qayishmagan boylar, yangi tarixiy va madaniy davrning kelganini ko‘ra turib, hamon eskicha yashayotgan yoshlar qarshisida ko‘zgu tutib, ularning yangi davr bilan hamohang bo‘lmagan qiyofalarini ko‘rsatmoqchi, Yorqinoyga va kuni kecha cho‘ri bo‘lgan, ammo bugun xat-savod chiqarib, davrning ilg‘or kishilari qatoridan o‘rin olgan ayollarga jamiyat e‘tiborini qaratmoqchi bo‘lgan.

Cho‘lpon 1921–1923-yillarda “Turon” teatrining direktori sifatida san‘atdosh do‘sti Mannon Uyg‘ur bilan birga o‘zbek teatr san‘atining to‘g‘ri yo‘ldan borishida katta ishlarni amalga oshirdi. “Xalil farang”ning 1921-yil 2–3-fevralda namoyish etilishi haqidagi e‘londa asar “4 pardalik sinfiy fojia”, deb atalgan. “Turkiston” gazetasining 1922-yil 1-sonidan o‘rin olgan “Yoshlarning baynalminal bayrami” haqidagi maqolada esa shu kuni 5-internat o‘quvchilari tomonidan Cho‘lponning “Yoshlar hayotidan olib yozilgan” 3 pardalik asari o‘ynalgani aytilgan.

Afsuski, bu asarning Cho‘lpon qalamiga mansub qaysi asar ekanligi noma‘lum. Sirojiddin Axmedov ishtirokidagi manbalarga ko‘ra, Cho‘lpon dramaturgik ijodining bu dastlabki bosqichida yana “Ramazon ko‘rinishlari”, “Uzun quloq bobo”, “Ov” pyesalarini, hamkorlikda esa “Oktyabrgacha o‘n yil”, “Ikki dunyo” kabi asarlarni ham yaratgan. Muzaffar Muhamedov bu ro‘yxatga yana “Siniq oyna” degan pyesani qo‘shgan va bu asar asosidagi spektaklda Qudratulla Ma‘zumov Xo‘jayin, Qori Yoqubov esa Xizmatchi rollarini o‘ynagani haqida ma‘lumot bergan.

Uning xotirlashicha, “Turon”ning 1918–1920-yillardagi repertuarida Cho‘lponning yana bir pyesasi bo‘lib, unda na doimiy joyi, na oyligi bo‘lgan o‘zbek artistlarining maishiy hayoti hajv ostiga olingan.

REFERENCES

1. Yana oldim sozimni. T., Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot. 1991.
2. Asarlar. Uch jildlik. T., Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot. I, II jildlar. 1994-95.
3. Sharafiddinov O. Choʻlpon. T., “Choʻlpon”, 1991.
4. Sharafiddinov O. Choʻlponni anglash. T., “YOzuvchi”, 1994.
5. Karimov N. Choʻlpon. T., “Fan”, 1991.
6. Choʻlponning badiiy olami. T., “Fan”, 1994.